

Xizmat ko'rsatish narxlari Moliya vazirligi va Milliy gvardiya tasdiqlangan tariflar asosida, hamda O'zbekiston Respublikasidagi minimal oylik miqdori bilan belgilanadi

10. Ijrochi xizmatlari uchun to'lov larga o'zgartirishlar kiritish qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi tariflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.

11. Buyurtmachi mazkur Shartnoma imzolangan kundan boshlab, 10kun ichida mazkur Shartnoma bahosining 15 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshiradi.

Ijrochi tomonidan Buyurtmachiga bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomaga taqdim qilingandan so'ng Buyurtmachi besh kun ichida avans to'lovini chiqarib tashlagan holda oylik to'lovni amalga oshiradi.

Buyurtmachi byudjet tashkiloti yoki byudjet mablag'lari oluvchi bo'lsa, oylik to'loving 100 foizi miqdorida avans to'lovini keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.

12. Xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblangan Buyurtmachi mazkur Shartnomaning 11-bandidako'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, Ijrochi Buyurtmachiga akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.

Mazkur Shartnoma bekor qilingan hollarda Ijrochi Buyurtmachi bilan to'langan to'lovlari bo'yicha qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur.

4-bob. Tomonlarning huquq va majburiyatları

13. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

Ijrochidan belgilangan qo'riqlash tartibiga rioya etishini talab qilish;

xizmat ko'rsatish jarayonida Ijrochining xodimlari tomonidan intizomni buzish holatlarini to'xtatish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha kerakli choralar ko'riliшини Ijrochidan talab qilish;

Ijrochining xizmatni tashkil qilishi va amalga oshirishini, qo'riqlash turlariga mos bo'lgan kiyim-bosh, kiyim-bosh anjomlari (ekipirovkasi), qurol-aslahalarining mavjudligini nazorat qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari buzilishining har bir holati bo'yicha Ijrochining vakili ishtirokida ikki nusxada dalolatnomaga tuzish;

Ijrochining aybi bilan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlangan taqdirda Ijrochidan ularni bartaraf etishni talab qilish;

Ijrochi tomonidan mazkur Shartnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zararni o'ndirish.

14. Buyurtmachining majburiyatları:

mazkur Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan 2022 yil «1» ~~aprel~~ dagi ko'zdan kechirish dalolatnomasiga asosan qo'riqlashga topshiriladigan obyektni, alohida xonalarni texnik mustahkamlash bo'yicha tadbirlarni bajarish, o'z hisobidan texnik qo'riqlash vositalari (*obyektning turiga qarab post qurilmalari va uni isitish uskunalari, postlararo aloqa, ichki va shahar telefonlari, yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi, obyekt perimetri bo'ylab kerakli yoritish vositalari, qulflar, turniket, kuzatish maydonchasi, shaxsiy tekshirish xonalari, ishchi va xizmatchilarining shaxsiy buyumlarini saqlash xonalari, yong'in o'chiruvchi vositalar va boshqalar*) bilan jihozlash va zarur hollarda ularni ta'mirlash;

har qanday moddiy boyliklarni obyekt hududining devor to'sig'idankamida metruzoqlikda (ob'ekt joylashuvini hisobga olgan holda) joylashtirish;

Ijrochi bilan birgalikda har chorakda kamida bir marta obyektning texnik mustahkamligini, qo'riqlashning texnik vositalari bilan ta'minlanganini, shu jumladan yong'indan qo'riqlash signalizatsiyasi holatini tekshirish ko'rigin o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlari, Ijrochini bu haqda xabardor qilish muddati va tartibini ko'rsatgan holda Tomonlarning vakillari ishtirokida dalolatnomaga tuzish;